


Sharq mamlakatlari tarixi tizimida

MARKAZIY OSIYO VA O'ZBEKISTON TARIXI

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

O‘ZBEKISTON MILLIY KUTUBXONASI

O‘ZBEKISTON XOTIN-QIZLAR “OLIMA” UYUSHMASI

**SHARQ MAMLAKATLARI TARIXI TIZIMIDA MARKAZIY OSIYO VA
O‘ZBEKISTON TARIXI**

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

Toshkent-2025

UO‘K: 94(543)(575.1)
KBK: 63.3 (543)(5Uzb)
Sh-53

Professor Sanobar Shadmanovanning 60 yilligiga bag‘ishlangan “Sharq mamlakatlari tarixi tizimida Markaziy Osiyo va O‘zbekiston tarixi” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent: TDSHU nashriyoti, 2025. – 607 bet.

Mas’ul muharrir:

t.f.d., prof. D.B.Sayfullayev

Taqrizchilar:

Tarix fanlari doktori, prof. N.E.Karimova

Tarix fanlari doktori, prof. I.Xaydarov

Tahrir hay’ati:

Tuychi Axmedov, Nargizaxon Alimova, Lutfiya Qodirova, Mashhura Temirova, Ozodbek Rajabov, Azizbek Badalov, Laziza Ro‘ziyeva, Madina Samiyeva, Abduvaxob Egamberdiyev

Ushbu to‘plam professor, tarix fanlari doktori Sanobar Shadmanovanning 60 yilligiga bag‘ishlab o‘tkazilgan konferensiya maqolalaridan iborat. Mazkur maqolalar Sharq mamlakatlari, Markaziy Osiyo va O‘zbekiston tarixining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy hayotini ochib berishga xizmat qiladi.

Mazkur nashr ta’lim tizimidagi professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar va tarix faniga qiziquvchilar uchun mo‘ljallangan.

Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti Ilmiy kengashining 2025-yil 29-martdagi 8-sonli qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-8059-4-3

© Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti, 2025-yil

aziyat chekdi. Sanoat korxonalarida changlarni ushlab qolish inshootlarini yetishmasligi hududda yashab klayotgan aholining hayotiga ham xavf sola boshlagan.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati:

1. Экология ва атроф-мухитни муҳофаза қилиш соҳасида давлат бошқаруви тизимини такомиллаштириш тўғрисида"ги 2017 йил 21 апрелда ПФ-5024-сонли фармони // Халқ сўзи. – 2017 йил 22 апрель.
2. Худойбергенов М. Хорезмская область. – Т.: Узбекистан. 1975. –180 с.; Аллабергенов С. История Хорезмской СССР (октябрь 1923- октябрь 1924 гг.). Автореф. ... канд. ист. наук. – Ашгабад, 1993. – 24.с.; Кожагелдиев А. История города Турткуля 1873–1941 г. Автореф. ... канд. ист. наук. – Нукус, 1996. – 22 с.; Узakov Б. Социальные аспекты развития орошаемого земледелия в Узбекистане 60-е - нач. 70-х гг. (На материалах южных, областей). Автореф. ... канд. ист. наук. – Т., 1993. – 26 с.
3. ЎЗР МДА фонд-2454, жилд-6, иш-9471, варақ-21.
4. Худойбергенов М. Хорезмская область. – Т.: Узбекистан, 1975. –С. 70.
5. Проблемы развития экономики Узбекистана. – Т.: Издательство Академии наук Узбекской ССР, 1966. – С. 233.
6. Народное хозяйство Узбекской ССР в 1982 г. Статистический ежегодник. – Т.: Узбекистан, 1984. – С. 90.
7. ЎЗР МДА фонд-2742, жилд-1, иш-204, варақ-106.
8. ЎЗР МДА фонд-2772, жилд-1, иш-921, варақ-15.
9. Углублять перестройку задавать тон в делах // Правда Востока. 1989 год 23 мая.
10. Воздух и вода в июне // Правда Востока. 1989 год, 15 июль.

BUXORO SHAHRIDA SOVET DAVRI ARXITEKTURASI VA SHAHARSOZLIK SIYOSATI: TARIXIY-ME'MORIY TAHLIL

Hayotova Nafisa Zakirovna

BDTU, Ijtimoiy fanlar va jismoniy madaniyat kafedrasi dotsenti,
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Kirish. XX asrning I yarmidan 90-yillarga qadar hukm surgan sovet boshqaruvi davrida O'zbekistonda sotsialistik qurulishlar keng ko'lamda olib borilib, sovet arxitekturasida shaharsozlikda o'ziga xos tarzda yangi sarlavhani ochib berdi. Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida faqatgina yangi boshqaruv tuzilmalari tashkil etilibgina qolmay, balki tarixiy shahar muhiti ham mutlaqo yangi mafkuraviy asosda qayta shakllantirila boshlandi. O'z navbatida sovet arxitekturasida va shaharsozlik falsafasida mutlaqo yangi yo'nalish – me'moriy salohiyat va ijtimoiy tuzumning uyg'unligiga asoslangan modernlashuv kuzatildi.

Metodologiya. Shahar madaniyatining shakllanib borishi hamda bu davrda me'morchilikda sovetcha yondashuvni o'rganish uchun maqolada tarixiy manbalar, arxiv hujjatlari, mahalliy respondentlar ma'lumotlari shuningdek, mavjud me'moriy obyektlar tahliliga asoslangan ilmiy usullar qo'llanildi. Tadqiqotda sovet davrida Buxoro shahrida barpo qilingan arxitektura obyektlari, ularning joylashuvi, funksional vazifasi va

mafkuraviy mohiyatini o'rganish asosiy yo'nalish sifatida belgilandi. Bu maqsadda tarixiy-tahliliy, solishtirish va arxiv manbashunoslik usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning hududiy doirasi Buxoro shahri bilan cheklangan bo'lib, davriy chegara esa 1920 yildan 1980 yillargacha bo'lgan sovet boshqaruvi yillari bilan belgilanadi. Tadqiqot obyekti sovet davrida qurilgan shahar infratuzilmasi bo'lib, predmeti ushbu infratuzilmaning shahar madaniyati, me'moriy yechimlari g'oyaviy funksiyalari hisoblanadi.

Natijalar. Sovet hukumati Buxoroda davlat boshqaruvini shakllantirish va yangi tuzumni joriy qilish davomida 1920-yillardan boshlab mavjud tarixiy va mahalliy boylarning xususiy xonadonlarni ma'muriy muassasalarga aylantirish boshlandi. Arxiv hujjatlariga ko'ra, shaharning an'anaviy qismidagi bir qator hovlilarda davlat tashkilotlari o'z faoliyatini boshladi. Bu holat shaharning madaniy-tarixiy tuzulishiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Jumladan, amirlik hukmronligining markazi bo'lgan Ark qal'asida 1921 yilda Buxoro Sovet Respublikasi markaziy inqilobiy qo'mitasi ish olib bordi [1]. Xususan, shunday joylashuvlar quyidagicha amalga oshirilgan: Qozixona binosi – ilgari shariat sudi faoliyat yuritgan bu bino Davlat boyluklarini saqlash va muhofaza qilish bo'limiga berilgan, To'raqulboy xonadoni – Maorif bo'limiga ajratilgan, Miri Kalon xonadoni – Harbiy ishlar bo'limi idorasiga aylantirildi, G'iyoz oqsoqol xonadonida Xorijiy ishlar hamda Nozirlar Soveti idoralari faoliyat yuritib boshladi, Yusufboy xonadoni – Buxoro Kommunistik partiyasi idorasi sifatida, Yahyoboy xonadoni – Favqulodda yordam komissiyasi, Qarshibek, Karvonboshi, Mir'ob, Qori Ubayd xonadonlari – tegishli ravishda shahar qo'riqlov boshlig'i, komendantlik, transport va turar-joy bo'limlari joylashtirildi. Axmad Xoja Siddiq, Yusuf Xojaning xonadoni nashriyot hamda militsiya idoralari uchun moslashtirilgan, Gavkushon, Jo'ybor, Chorminor guzarlaridagi bo'sh qolgan hovlilarda – inqilobiy qo'mita, jinoiy qidiruv, kommunal xizmatlar va harbiy safarbarlik idoralari uchun moslashtirilgan [1].

Aytish joizki, dastlab shahardagi mavjud imkoniyatlardan foydalanilgan holda davlat idoralari joylashtirilgan bo'lsada, 1920 yil oxirlariga kelib, sovet hokimiyati shahar infratuzilmasini yangicha mafkuraviy va funksional asosda tashkil etishni maqsad qilib qo'ydi. Bu esa ma'lum darajada tarixiy inshootlarni buzish va o'rniga sovet arxitekturasida yangi tipdagi binolar qurilishini boshlab berdi. 1920-yillardan boshlab eski Buxoroning bir qancha tarixiy obidalari buzilib, o'rniga yangi ma'muriy binolar va sanoat infratuzilmasi qurildi. Ark qal'asi oldidagi Registon maydoni va unga yaqin yerga joylashgan obidalar olib tashlandi. Jumladan, Poyanda-biy otaliq masjidi, Dor ash-shifo, Bozori gusfand, Xo'ja Nihol, Shodimbiy madrasalari kabi XVI-XII oid tarixiy yodgorliklar butunlay buzib tashlandi [2]. Ularning o'rniga "Xalq Uyi" Drama Teatri va Sovet Uyushmasi binolari kabi ma'muriy va madaniy markazlar qurildi. Bu binolar sotsialistik arxitekturaning asosiy namunasi bo'lib xizmat qildi.

Tahlil va muhokama. 1924 yilda Buxoro Arkining chap tomonida, Navmichkat deb ataluvchi ko'hnashahriston tugash joyining shimolida, Xo'ja Nurobod guzarida yevropa uslubida yangi bino quriladi [3]. Ikki qavatli pishiq g'ishtli bino shaharning zamonaviylashish jarayonida muhim ahamiyat kasb etdi. Bu bino Buxoro davlat pedagogika institutining bosh korpusi sifatida foydalanildi. Sovet arxitekturasidagi minimalizm va funksionalizm tushunchalari ushbu binoda aks etadi. Tarixiy shaharsozlikda ilgari mahalliy g'ishtli binolardan farqli ravishda, yevropa uslubidagi

binolar geometriya, fasad va ichki tuzilish nuqtai nazaridan to'g'ri chiziqlar va simmetrik shakllarga ega bo'la boshladi.



Eski Buxoro. Xalq uyi Madrasa Shodimbiy (buzib yuborilgan)

Tarixiy shaharsozlikda ilgari mahalliy g'ishtli binolardan farqli ravishda, yevropa uslubidagi binolar geometriya, fasad va ichki tuzilish nuqtai nazaridan to'g'ri chiziqlar va simmetrik shakllarga ega bo'la boshladi. Bino o'z davrining me'moriy yodgorligi hisoblanib, zinapoyasi keng, o'quv xonalari katta va baland qilib qurilgan. Ushbu binoda institutning tarix, ximiya-biologiya, keyinchalik filologiya bo'limlari faoliyat ko'rsatgan. Hozirda bu binoda tarix faniga ixtisoslashgan 6-son maxsus maktab faoliyat ko'rsatadi.

Sovet davrida qurilgan dastlabki maktablar binolari odatda oddiy konstruktiv yechimlarga asoslangan bir qavatli loyiha asosida barpo etilgan. Bu davrda bunday binolarning qurilishdan asosiy maqsad, imkon qadar tezroq va minimal harajat evaziga ta'lim maskanlarini tashkil etish bo'lgan. Bunday qurilish ana'nasining ayrim namunalari bugungi kunga qadar saqlanib qolgan. Jumladan, Buxoro shahridagi Abu Ali Ibn Sino nomidagi 14-sonli umumta'lim maktabining bir qavatli binosi hozirgacha mavjud. 1960 yillarning ikkinchi yarmidan boshlab O'zbekistonda [xususan Buxoroda ham maktablar tipovoy loyiha (типовой проект) asosida qurila boshlandi. Bunday maktablar ikki yoki uch qavatli qilib loyihalashtirildi. Bunday binolar arxitekturasida murakkab bezaklardan voz kechilib, asosiy urg'u qulaylik, samaradorlik va sig'imdorlik tamoyillariga qaratilgan edi. Ushbu turdagi maktablar 1970-1980 yillarda keng qurila boshlandi. Eski maktab binolari oldida yangi tipdagi maktablar keng qurildi. Masalan, Frunze, Ibn Sino, Roza Lyuksemburg, M.Gorkiy, S.Ayniy kabi maktablarning yangi binolari qurildi.

Ma'lumki, Buxoro shahrida tibbiy xizmatlar tarixan XIX asr oxiridan shakllana boshlagan bo'lsada, mazkur sohaning keng qanrovli rivojlanishi sovet davri bilan bog'liqdir. Bu davrda sog'liqni saqlash tizimi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralgan hamda shaharda bir qator ixtisoslashgan tibbiy muassasalar barpo etilgan. Tibbiyot markazining birinchi korpusi 1891 yil 30 avgustda ishga tushirilgan bo'lib, u "Rus tuzem shifoxonasi" nomi bilan o'z faoliyatini boshlagan [4]. Shifoxona Shayx Jalol va Namozgoh darvozalari orasidagi hududda, Sohibzoda va Mirakon guzarlariga tutash joyiga qurilgan.



1924 yil



1891 yil “Rus tuzem shifoxonasi”

1924 yil 5 yanvarda shifoxonaning 2-korpusi ishga tushadi hamda O'lkatropik tibbiyot instituti sifatida faoliyatini boshlaydi. Bino qurilishida pishiq g'isht va mustahkam konstruksiyalar qo'llanilgan bo'lib, bu uning uzoq yillar davomida foydalanishga yaroqliligini ta'minlagan. Uning fasadida o'sha davr Yevropa arxitekturasiga xos oddiy simmetriya, keng eshik-romlar va ochiq ayvon elementlari qo'llanilgan.




Viloyat kasalxonasi 1924 yil



Pochta-telegraf binosi 1924 yil

Tibbiy infratuzilmaning kengayishi jarayonida maxsus tibbiy xizmat turlari hamda ularning shahar infratuzilmasida tutgan o'rni muhim ahamiyat kasb etadi. Buxoro shahrida bunyod etilgan shifoxonalar, tibbiy ko'rik muassasalari bilan bir qatorda, huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikda ish yurituvchi maxsus tibbiy muassasaning qurilishi muhim ahamiyatga egadir.



Chapdan Respublika sud tibbiy ekspertiza ilmiy-amaliy markazi Buxoro filiali (hozirda ham faoliyat ko'rsatib kelmoqda), 2 binoda hozir kunda "Barkamol avlod" markazi faoliyat ko'rsatadi

Bu kabi maxsus muassasalarni bino qilish masalalari sovet shaharsozligida ijtimoiy va davlat ahamiyatiga molik infratuzilma obyektlari sifatida qaralgan. Bugungi kunda Buxoro shahrining Ho'ja Nurobod ko'chasida joylashgan Respublika sud tibbiy ekspertiza ilmiy-amaliy markazi Buxoro filiali binosi 1928 yilda barpo qilingan bo'lib [5], ushbu inshoot nafaqat tibbiy-ma'muriy maqsadlarga xizmat qilgan, balki shaharning ijtimoiy infratuzilmaviy tuzilishida muayyan o'rin egallagan. Binoning bosh fasadi simmetrik tuzilgan bo'lib, markaziy qismi peshtoq (rizalit) orqali ajralib turadi. Peshtoq qismida kolonnalardan foydalanilgan. Bu jihat sovet arxitekturasidagi neoklassik va stalincha ampir uslublarning ta'siri borligini namoyon qiladi. Kolonnalar kompozitsiyasi binoni tantanali va davlatchilik ruhiga xos bo'lganligini ko'rsatadi.

Sovet davrida madaniy infratuzilmalarning barpo etilishi shahar madaniyati va sotsialistik hayot tarzini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. 1956 yilda Buxoroda bunyod qilingan "Pionerlar uyi" ("Dom pionerov", hozirda "Barkamol avlod" markazi) binosi o'sha davrning shaharsozlik va arxitektura xususiyatini yaqqol namoyon etuvchi inshootlardan biri sanaladi. Binoning me'moriy echimi, asosan, uning baland ustunli peshtoqi hamda simmetrik tarzda joylashtirilgan oyna bloklari 1930-1950 yillarda keng yoyilgan "Stalincha ampir" yoki "sovet monumental klassisizmi" uslubiga xos bo'lganligini ko'rsatadi. Binoning baland va simmetrik kolonnalari, frunton (tom qismidagi uchburchak element), keng peshtoq va baland romlar – stalin ampiri uslubiga xosligini ko'rsatadi. Yorug' va muvozanatli fasad odatda oq, engil zarvaraq ranglarda bo'lganligi o'z o'rnida madaniyat va ma'naviy yuksaklik ruhini aks ettirgan. Bu uslubdagi binolar ko'p hollarda neoklassik me'morchilikdan ilhomlangan bo'lib, tantanali va ma'naviy ustuvorlikni aks ettirgan. Bu kabi binolar SSSRdagi shaharlarni qayta qurish va modernizatsiya qilish rejalarining bir qismi bo'lgan. Asosan Moskvadagi rekonstruksiya jarayonlari namuna sifatida qabul qilinib, boshqa hududlarda ham madaniy-ma'rifiy muassasalar atrofida shahar madaniyati shakllantirildi. Binoga yaqin hududda bog'lar, yozgi kinoteatr, yoshlar sport maydonchasi barpo qilingan. Bu o'z navbatida, urbanistikada "periferiya markazi" modeliga muvofiq kelib, binolar atrofida ijtimoiy hayotni rivojlantirish va aholining madaniy saviyasini oshirishga qaratilgan edi. Bino nafaqat bolalar uchun to'garak va tarbiya maskani, balki ijtimoiy muhitda kommunistik

qadriyatlarni singdirish markazi sifatida faoliyat yuritgan. Tashqi ko‘rinishi orqali davlatning qudrati hamda socialistik hayot tarzi namoyon qilingan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, 1925-1980 yillar davomida Buxoro shahrida ijtimoiy infratuzilmalarning – ta’lim, tibbiyot, madaniy-maishiy obyektlarning tizimli ravishda bunyod etilishi shahar arxitekturasini va madaniyatini shakllantirishda muhim o‘rin tutgan. Sovet davrida barpo etilgan inshootlar sotsialistik tarbiya va mafkuraviy yo‘nalishiga qaramay o‘z davri uchun ijtimoiy-iqtisodiy hayotda muhim vazifani bajargan hamda shaharning tarixiy taraqqiyotida alohida bosqichni namoyon etadi. Bu inshootlar nafaqat sovet mafkurasini targ‘ib qiluvchi balki shahar madaniyatining rivojlanish tarixida iz qoldirgan obyektlar sifatida e’tiborga loyiq. Shunday ekan ularni tarixiy merosni ajralmas bo‘lagi sifatida baholanishi lozim. Tarixiy arxitektura faqat o‘tmish xotirasi emas, balki shahar madaniyatining bir qatlamidir. Shu sababdan sovet davrida qurilgan inshootlarni mafkuraviy yoki eskirgan deb baholab, ularni buzish, yoq qilish tarixning bir bosqichini yo‘qotish bilan barobardir. Yosh avlod uchun tarixiy qatlamning asrab avaylanishi, arxitekturaviy xilma-xillikning himoya qilinishi madaniy yoqgorlikka hurmat, tarixga nisbatan ma’sulliyatli yondashuv belgisi hisoblanadi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati:

1. ЎМА, фонд-47, рўйхат-11, yig‘ma jild-27, 88-варак.
2. Тўлаганов А. Тўраев Х. Бухоро давлат университетининг тарихий ва замонавий ўқув бинолари ҳамда иншоотлари. Бухоро.2016. - Б.4.
3. Buxoro shahar 6-sonli maktab pasporti ma'lumotlari.
4. Buxoro ko'p tarmoqli tibbiyot markazi binosi pasporti ma'lumotlari.
5. Respublika sud tibbiy eksperiza ilmiy-amaliy markazi Buxoro filiali binosi pasporti ma'lumotlari.

IKKINCHI JAHON URUSHIDAN SO‘NG FARG‘ONA VODIYSIDA PAXTA TOZALASH SANOATI ZAVODLARINING ISH XAQI VA MUKOFATLARI TO‘G‘RISIDA

Sayfullayev Xumoydullo Turg‘unboy o‘gli

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

Jahon tarixi kafedrasini o‘qituvchisi

O‘zbekiston SSR sanoati ikkinchi jahon urushidan so‘ng juda yuqori suratlarda rivojlandi. Ayniqsa bu yengil va to‘qimachilik sanoatida yaqqol ko‘zga tashlanda. Ushbu sanoat tarmoqlaridan ajralib chiqqan paxta tozalash sanoati nafaqat yengil va to‘qimachilik sanoatiga ba’lki, oziq-ovqat sanoati xam rivojlanishida muhim o‘rin tutdi, shu o‘rinda ikkinchi jahon urushidan oldin va urushdan so‘ng sanoat ishchilarining ahvoli ko‘ngildagidek emasdi. Paxta tozalash sanoati ishlab chiqarish xajmi yildan-yilga o‘sib borishi ishchilarning soni o‘sishi va ularning oylik ish xaqi va turar-joy moddiy maishiy ahvolini yaxshilash uchun choralar ko‘rish hukumat oldidagi muhim vazifa bo‘lib qolaverdi. 1946-yil Toshkentda partiya faollarining yig‘ilishida: ishchilar, xizmatchilar, injiner-texnik xodimlar va ularning oilalariga moddiy, maishiy madaniy xizmat ko‘rsatish

68.	Klichbayev Abatbay. O'zbekistonda tibbiyot kutubxonalarining tashkil etilishi.....	331
69.	Il'yosov A'zamxon. Marg'ilon shahridagi ziyoratgohlar tasnifi.....	336
70.	Islomov Abdulaziz. Turkiston muxtoriyatining O'zbekiston tarixida tutgan o'rni va ta'siri.....	341
71.	Temirova Mashhura. Turkiston muxtoriyati davrida ichki ishlar organlari faoliyati (1917-1923 yillar).....	344
72.	Славомир Горак. Очерки истории Туркестанских скаутов.....	349
73.	Nuridinov Turdali. Sharq uyg'onishi yoxud buxoro yoshlarining fojiasi.....	353
74.	Yermetov Avaz. Turkistonda sovet hokimiyatining o'rnatilishi va mustahkamlanishida nazorat organlarining o'rni (1917-1924) yillar.....	356
75.	Yunusova Xurshida. XX asrda O'zbekiston qishloq xo'jaligi va bu xususda ba'zi mulohazalar.....	360
76.	Kenjayeva Nargiza. XX asrning 30 – yillarida pomir va unga tutash mintaqalarga uyushtirilgan ilmiy ekspeditsiyalar: tashkil etilishi va kompleks tadqiqot xususiyatlari.....	364
77.	Шадрманов Турдубай. Жилищное строительство в переселенческих колхозах Узбекистана в 1940-1950-х годах.....	369
78.	Qodirova Lutfiya. “Sovet ayoli” obrazini shakllantirishda fotosuratlardan foydalanishning usul va vositalari.....	375
79.	Boysariyeva Sohiba. O'zbekistonda xotin-qizlarning tibbiy xizmatga jalb qilinishi (1924-1945).....	380
80.	Karimova Feruzaxon. 1924-1934 yillarda O'zbekistonda tibbiy xizmat va uning muammolari.....	385
81.	Raxmanova Mavluda. 1935-1940 yillarda O'zbekiston SSRga xalqlarning majburiy ko'chirilishi.....	388
82.	Djurayev Ravshan. Chorva xo'jaliklari faoliyatida veterinariya va zootexnika xizmatlarining o'rni.....	392
83.	Pasilov Baxodir. SSSRdagi “iliqlik davri” va uning O'zbekistondagi ijtimoiy hayotga ko'rsatgan ta'siri.....	396
84.	Axmedov Sarvar. Sovet davrida O'zbekistonning ilm-fan sohasidagi hamkorlik aloqalari.....	401
85.	Raximova Gulchexra, Xamidullaev Muxammadali. Xorazm sanoat korxonalarida texnik muammolarning ekologik holatga ta'siri.....	404
86.	Hayotova Nafisa. Buxoro shahrida sovet davri arxitekturasini va shaharsozlik siyosati: tarixiy-me'moriy tahlil.....	410
87.	Sayfullayev Xumoydullo. Ikkinchi jahon urushidan so'ng Farg'ona vodiysida paxta tozalash sanoati zavodlarining ish xaqi va mukofatlari to'g'risida.....	415
88.	Duschanov Rasuljon. Ikkinchi jahon urushidan so'ng davlat daromadlarining ba'zi turlari.....	419
89.	Xaydarov Izatilla. “Qayta qurish” siyosatining O'zbekiston sanoatiga ta'sirining tahlili (1985-1990-yillar).....	422
90.	Shaimkulov Azamat. Qayta qurish davrida matbuotning ijtimoiy fikr va muammolarni o'rganishdagi roli.....	427
91.	Azimova Maftuna. Mustaqillik arafasida Farg'ona vodiysida sog'liqni saqlash.....	433

tizimi: muammo va ziddiyatlar.....	
92. Ruzieva Laziza. Reconstruction and its impact on the automotive sector (1986-1990)	440
V Sho'ba. Mustaqillik davri O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy jarayonlarini tadqiq etishda innovatsion yondashuvlar	
93. Mavrulov Abduxalil. Milliy tarix va inson qadri masalalari.....	445
94. Эргашева Юлдуз. Тенденции в развитии высшего образования Узбекистана..	455
95. Axmedov To'ychi. O'zbekistonda televideniyaning ma'naviy vazifalari va ahamiyati.....	463
96. Elmuratov Ikmatulla. Qoraqalpoq davlat universiteti tarixchi kadrlarning ilmiy salohiyati tarixidan.....	468
97. Temirova Mashhura. Ichki ishlar organlari profilaktika inspektorining fuqarolar yig'ini raisining huquq-tartibot masalalari bo'yicha o'rinbosari sifatidagi faoliyati (2017-2024 yy.).....	471
98. Oxunjonova Shaxodat. Toshkent bozorlarida savdo va xizmat ko'rsatishda band bo'lgan aholining ijtimoiy tarkibi (1990-2024 yillar).....	475
99. Mamatqulov Bekzod. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda sanoat sohasi tarixining yangicha uslubda tadqiq etilishi: tahlil va natijalar.....	484
100. Abdurahmonova Nilufar, Yo'lyaxshiyev Qurbon. Xorijiy mamlakatlarda O'zbekiston tarixini o'rganilishi.....	488
101. Davletov Sanjarbek, Davlatov Kamronbek. Markaziy Osiyoda integratsiya jarayonlarini mustahkamlashda O'zbekistonning tutgan o'rni.....	492
102. Salimov Sherzod. Mustaqillik yillarida aholini ish bilan ta'minlashda xususiy bandlik agentliklarining roli.....	495
103. Maroziqov Akmal. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi.....	502
104. Abdug'aniyeva Gulira'no. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda harbiy sud-huquq masalasi.....	506
105. Azimova Maftuna. Mustaqillik yillarida Farg'ona vodiysida shoshilinch tez yordam tizimining tashkil etilishi va hududiy muammolari.....	510
106. Yaxshimuratov Abdirimov, San'atbek Yaxshimuratovich. Mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekistonda muzeylar sohasida olib borilgan ishlar.....	518
107. Azamatova Gulmira. O'zbekistonda migratsion harakatlarning holati va o'zgarish tendensiyalari.....	522
108. Tojiyev Dostonjon. Views on the activities of the organization of turkic states in the books of the president of Uzbekistan.....	527
109. Abdurashidova Dilorom. Mustaqillik yillarida ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda nodavlat-notijorat tashkilotlarning o'rni.....	532
110. Abdimov Oybek. Markaziy Osiyo tarixi va madaniyatini YUNESKO doirasida xalqaro tadqiq qilish masalalari.....	536
111. Bazarova Irodaxon. Mustaqillik yillarida ta'limdagi o'zgarishlar.....	543

112. <i>Raxmatov Abduvali</i> . Markaziy Osiyoda turizmning rivojlanish holati va istiqbollari	546
113. <i>Караманова Г., Сулайманов С., Утемуратова Х.</i> Роль международных связей в развитии музейного дела Каракалпакстана.....	548
114. <i>Raxmatullayeva Saodat</i> . Mustaqillik yillarida O'zbekistonda kutubxonalarning moddiy-texnik bazasi holati.....	552
VI Sho'ba. Fan va texnika sohasiga oid tadqiqotlar va O'zbekiston olimalarining ilm-fan, madaniyat ravnaqiga qo'shgan hissalar (olimalarning ilmiy-tadqiqot yo'nalishlari asosida)	
115. <i>Babajanova Dilorom</i> . Ilm-fan va madaniyat rivojiga ulkan hissa qo'shgan tarixchi olim.....	557
116. <i>Asadova Shoira</i> . Tarix fani muammolari tarixchi olim nazdida.....	562
117. <i>Balliyeva Roza</i> . Tanqisligi sharoitida qayta ishlatilgan suvdan oqilona foydalanish yo'llarini topgan olim.....	567
118. <i>Коцанов Бахыт</i> . Вклад профессора С. Б. Шадмановой в развитие исторической науки Каракалпакстана.....	570
119. <i>Mustafayeva Nodira</i> . O'zbekiston fanlar akademiyasi olimalarining ilm-fan taraqqiyotidagi o'rni.....	575
120. <i>Сейдаметова Гулнара</i> . Вопросы истории Узбекистана в трудах С.Шадмановой.....	579
121. <i>Raximdjanova Nigora</i> . O'zbek ayollari tarixchi olimalar nigohida.....	583
122. <i>Elboyeva Shaxnoza</i> . Mustaqillik yillarida o'zbek olimalarining ilm-fan, madaniyat rivojiga hamda fan va texnika taraqqiyotiga qo'shgan hissalar.....	588
123. <i>Turg'unpulatova Manzatxon</i> . Ustoz Shadmanova Sanobar Bazarbayevnaning tarixshunoslik metodologiyasi va pedagogik yondashuvlari: tarixni yangi nuqtai nazardan o'rganish.....	592
124. <i>Xayrullayeva Maftuna</i> . O'zbekiston olimayollarining tibbiyot sohasi ravnaqiga qo'shgan hissasi.....	595

SHARQ MAMLAKATLARI TARIXI TIZIMIDA MARKAZIY OSIYO VA O‘ZBEKISTON TARIXI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

Mas’ul muharrir:

t.f.d., prof. D.B.Sayfullayev

Taqrizchilar:

Tarix fanlari doktori, prof. N.E.Karimova

Tarix fanlari doktori, prof. I.Xaydarov

Tahrir hay’ati:

*Tuychi Axmedov, Nargizaxon Alimova, Lutfiya Qodirova, Mashhura Temirova,
Ozodbek Rajabov, Azizbek Badalov, Laziza Ro‘ziyeva, Madina Samiyeva, Abduvaxob
Egamberdiyev*